

DIRIJYORLIK SAN'ATINING MUSIQA IJROCHILIGI SAN'ATIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Jo'rayeva Malika

O'zDK huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti "Estrada cholg'ularida ijrochilik va dirijyorlik" kafedrası, magistratura 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada dirijyorlik san'atining musiqiy jamoa (orkestr, xor, ansambl) faoliyatidagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Dirijyorning ijrochilarni boshqarish, asarning badiiy mazmunini ochib berish hamda jamoaning uyg'un ijrosini ta'minlashdagi vazifalari tahlil qilingan. Shuningdek, dirijyorlik san'atining tarixiy rivojlanishi, zamonaviy musiqa madaniyatidagi o'rni va musiqiy ta'lim tizimidagi ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: dirijyorlik, orkestr, xor, ansambl, musiqa ijrochiligi, badiiy talqin, musiqiy jamoa, ijro mahorati, rahbarlik, musiqa san'ati.

Аннотация: В данной статье рассматриваются роль и значение дирижёрского искусства в деятельности музыкального коллектива (оркестра, хора, ансамбля). Проанализированы функции дирижёра в управлении исполнителями, раскрытии художественного содержания произведения и обеспечении слаженного исполнения коллектива. Также освещаются вопросы исторического развития дирижёрского искусства, его места в современной музыкальной культуре и значения в системе музыкального образования.

Ключевые слова: дирижирование, оркестр, хор, ансамбль, музыкальное исполнительство, художественная интерпретация, музыкальный коллектив, исполнительское мастерство, руководство, музыкальное искусство.

Abstract: This article discusses the role and significance of conducting art in the activities of musical ensembles (orchestras, choirs, and ensembles). The functions of the conductor in leading performers, revealing the artistic content of a musical work, and ensuring coordinated performance are analyzed. The article also examines the historical development of conducting art, its place in modern musical culture, and its importance in the system of music education.

Keywords: conducting, orchestra, choir, ensemble, musical performance, artistic interpretation, musical group, performance skills, leadership, musical art.

Dirijyor (nemischada,- Dirigent, inglizchada- conductor, frantsuzchada. – chef d'orchestre) - ijodiy jamoa rahbari. Dirijyorlik musiqa ijrochiligi san'atining eng qiyin turlaridan biri bo'lib, ushbu san'atining eng yosh yo'nilishlaridandir. Barcha musiqa san'atlari kabi, dirijyor ham o'zining "cholg'usi" ya'ni, biror ijodiy jamoa (xor, orkestr) bilan uzluksiz muloqot va shug'ullanishi davomida shakllanib, rivojlanib boradi.

Orkestr – "o'zlashtirish uchun murakkab cholg'u" bo'lib, dirijyor uning yordamida asarlarning turli uslub va davrlarga xosligi, qanday janr va yo'nalishlarga tegishliligi

shuning bilan birga, dirijolrlk texnikasining barcha bosqichlarini ishga solgan holda, uning badiiy tomonlarini ochib beradi.

Orkestr yagona ijro jamoasi hisoblansada, undagi har bir sozanda o'ziga xos fe'l – atvori va tushunchasiga ega bo'lgan shaxslardan iborat.

Orkestr tarkibiga kiruvchi har bir cholg'ularning texnik imkoniyatlari bilan birga, ularning o'ziga xoslik tomonlarini va musiqiy bilimni chuqur bilishi, eshitish qobiliyatining yuqoriligi shuningdek, pedagogika va psixologiyaning obdon egallanganligi uning pultga chiqishi uchun huquq beradi. Yuqori kvalifikasiatsiyaga va o'ziga xos ijro yo'nalishiga ega bo'lgan, musiqa asarlarini eshituvchiga baland saviyada yetkazib beruvchi musiqa ijrochisidir.

Dirijyor nafaqat xor yoki simfonik orkestrga balki, harbiy, kamer, xalq cholg'ulari, jaz, estrada-simfonik kabi orkestrlarga, opera guruhlariga, shuningdek ashula va raqs hamda vokal-cholg'u ansambllarida ham badiiy rahbar sifatida ish yuritishi mumkin.

Dirijyorlikning ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaladi. Ilk dirijyor orkestr ijrosini "ritmik zarblar" (masalan: qarsak) bilan sanashdan boshlagan bo'lsa, xor jamoalarida bitta yakkaxon - dirijyor vazifasini o'tagan. Qadimgi Yunonistonda nazm, teatr va raqs bilan birga musiqa san'ati ham rivojlanib borgan. Musiqiy yozuvlar hali nota yozuviga asoslanmagan, taktlarga

bo'linmagan bo'lib, ular harflar bilan belgilangan (harfiy yozuv). Xor jamoasini boshqaruvchi rahbar Korifey deb atalgan. U cherkovlarda xor ijrosi yoki lira va kifara jo'rligida ijro etilgan yakkaxon asarlarga rejissyor sifatida boshchilik qilib turgan. Korifey guruhni (ijrochilarni) ijroga tayyorlagan, o'zi qo'shiq aytgan, xorga sahnaga chiqish va kuylash joylarini ko'rsatgan. Ritm berish maqsadida qo'llarni yuqoriga (arsis) va pastga (tezis) ko'tarib, zarblardan (chapak, barmoqlarni qarsillatish) foydalangan. XV asrda musiqiy cholg'ularda ijro saviyasi va ko'p ovozli ijro rivojlanishi sababli, ansambl bir xil chiqishi uchun, yerga (yoki polga) urib turishga asoslangan "battuta" (uzun tayoq) yordamida dirijyorlik qilish uslubi paydo bo'ldi. Bu

shovqinli harakat ijroni birlashtirsada, eshituvchilarga xalaqit bergan. O'rta asrlar davriga kelib, oldingi harfiy yozuvlarni o'rnini nevma deb atalgan yozuvlar egallay boshladi. Nevmalar ohangning faqat tahminiy yo'nalishini belgilab bergan, ovozlarning balandligi va ritmning aniqligini ko'rsatmagan. Ushbu tarixiy jarayonda battuta o'rnini yana xeyronomiya egallay boshlagan. Ko'p ovozli ijroning rivojlanishi o'z navbatida notalar cho'zimi paydo bo'lishga olib keldi va bunday ijro menzura deb atala boshladi. Menzura (yunoncha: mera, teng bo'lingan notalar). Ilk bora ritmik cho'zimlar shoir matniga bo'ysunmagan holda namoyon bo'la boshladi. Ushbu tarixiy jarayonda yana mexanik boshqaruv – har bir taktni ko'rsatib turish birinchi o'ringa chiqdi.

XVII – XVIII asrlarda general-basning ma'qullanishi va keng qo'llanishi, ushbu partiyani ijro etayotgan sozandaga (klavesin yoki organda) dirijyor sifatida faoliyat ko'rsatish vazifasini ham qo'ya boshladi. U partiyasini ijro etish davomida ko'zlari, boshi, barmoqlari bilan yakkaxon, yakkanavoz yoki xor hamda sozandalar ijrosini ko'rsatib bordi. Oyog'ini esa musiqiy suratni saqlab turish uchun har bir takt oralig'ida urib turar edi. General-bas (nem. – Generalbas – umumiy, asosiy bas; ital. – Basso

numerato – raqamlangan bas), - deganidir. XVIII asrning 2-yarmida raqamlangan basning ijrodagi roli asta-sekin pasayib borishi natijasida, skripkachi-konsertmeyster orkestrning yagona boshqaruvchisi sifatida namoyon bo'la boshladi. Dirijyorlikning bunday ko'rinishi XIX asrda ham uzoq davom etdi. XIX asrning boshlarida simfonik musiqaning rivojlanishi, orkestr tarkibining murakkablashishi, ijroda badiiylik va ranglarning ifodadalanishiga talab kuchayib borishi natijasida, dirijyorning ansamblda o'tirib chalishidan ko'ra, uning alohida orkestr boshqaruvchisi sifatida faoliyat olib borishi yaxshi natijalar bera boshladi. Kamonning (smichok) o'rnini asta-sekinlik bilan dirijyor tayoqchasi egallay boshladi. I.F.Mozel (1812 y., Vena), K.M.Veber (1817 y., Drezden),

L.Shpor (1817 y., Frankfurt-na-Mayn) lar dirijyor tayoqchasini ilk tajribaga olib kirgan dirijyorlardir.

Orkestr qadimiy grek tilidan olingan bo'lib, orxestra – o'sha davr teatri xori joylashadigan maydonchani bildirgan.

Orkestr deb, har xil cholg'u turlari oilalaridan tashkil topgan sozandalar jamoasiga aytiladi. bildirgan. Uyg'onish davriga kelib, ushbu maydonchada ijro etadigan guruh orkestr deb atala boshladi.

Orkestr tarkibi, avval, faqat kamonli cholg'ulardan iborat bo'lgan (skripka, alt, bas, kontrabas). Keyinchalik damlilar, fleyta, goboy, fagot, XVIII asr II yarmiga kelib klarnet, truba va urma cholg'ularni ham uchratish mumkin bo'ldi.

Orkestrning ansambldan asosiy farqi:

- 1) Bir turdagi cholg'ularning to'liq oilasiga egaligi;
- 2) Har bir oila cholg'usi partiyasini, ikki yoki undan ortiq ijrochilarning bir vaqtdagi unison ijrosi.

Orkestr turlari bir necha ko'rinishga bo'linadi.

- 1) simfonik orkestr;
- 2) xalq cholg'ulari orkestri;
- 3) kamer orkestr;
- 4) estrada orkestri;
- 5) harbiy (damli) orkestr;
- 6) jaz orkestri.

Dirijyorlik va orkestr san'ati bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular musiqiy ijrochilikning ajralmas qismlaridir.

Dirijyor orkestrning badiiy rahbari sifatida barcha ijrochilarni yagona maqsad sari yo'naltiradi, asarning mazmuni va g'oyasini tinglovchiga yetkazishda muhim o'rin tutadi.

Orkestrning uyg'un, aniq va ta'sirchan ijrosi ko'p jihatdan dirijyorning bilim, tajriba va mahoratiga bog'liq.

Shuning uchun dirijyor va orkestr o'rtasidagi hamkorlik musiqiy asarning yuqori saviyada ijro etilishini ta'minlaydi.

Ularning o'zaro uyg'unligi nafaqat ijro sifatini oshiradi, balki musiqaning estetik va tarbiyaviy ahamiyatini ham yuksaltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Berlioz G. "Dirijyor orchestra". M. 1912 g.
 2. Sharl Myunsh "Ya dirijyor". L. "Muzika", 1967 g.
 3. Kolessa N. F. "Osnovi texniki dirijirovaniya". Kiyev, "Muzika Ukraini", 1981 g.
 4. Umarov Sh. "Dirijyorlik". Toshkent, 2024.
 5. И.А. Мусин. "Техника дирижирования", 1967.
 6. Vud Genri "O dirijirovanii". M. 1968 g.
 7. Vayngartner F. O. "O dirijirovanii". M. 1927 g.
 8. Matalayev L. N. "Osnovi dirijyorskoy texniki", "Sovetskiy kompozitor", Moskva, 1986 g.
 9. A.Ivanov-Radkevich "O vospitaniy dirijyora", "Muzika", Moskva, 1973 g.
 10. Malko N.A. "Osnovi texniki dirijirovaniya", "Muzika", Leningrad, 1965 g.38 9.
- M.V.Akmaljonova "O'zbek xalq cholg 'ulari orkestri dirijyorligi san'ati". Darslik. T.: "Fan ziyosi" nashriyoti, 2022 y.